

Andijon viloyat statistika boshqarmasi




ANDIJON VILOYATIDAGI O'RTACHA OYLIK NOMINAL HISOBLANGAN ISH HAQI

(dastlabki ma'lumotlar)

Andijon viloyatida 2018 yil yanvar-sentyabr oylarida o'rtacha oylik nominal hisoblangan ish haqi **1 541 153,7** so'mga teng bo'ldi va avvalgi yilning mos davriga nisbatan **22,7** foizga o'sishi kuzatildi.

O'rtacha oylik nominal hisoblangan ish haqi dinamikasini iqtisodiy faoliyat turlari kesimida ko'radigan bo'lsak, eng ko'p o'sish sur'atlari qurilish (avvalgi yilning tegishli davriga nisbatan 54,4 foizga oshgan), savdo (52,0 foizga) sohalariga to'g'ri kelgan. Eng kam o'sish sur'atlari esa moliya va sug'urta faoliyati (9,1 foizga o'sgan) va ta'lim (12,3 foizga o'sgan) sohalarida kuzatildi.

O'rtacha oylik nominal hisoblangan ish haqi miqdori va o'sish sur'ati
(2018 yil yanvar-sentyabr, qishloq xo'jaligi va kichik tadbirkorlik sub'yektlaridan tashqari)



Andijon viloyati bo'yicha o'rtacha oylik nominal hisoblangan ish haqi
(qishloq xo'jaligi va kichik tadbirkorlik sub'yektlaridan tashqari, ming so'm)

	2017 yil yanvar-sentyabr	2018 yil yanvar-sentyabr
Andijon viloyati	1 255,9	1 541,2
Andijon sh	1 484,0	1 865,5
Xonobod sh	1 373,2	1 648,7
<i>tumanlar</i>		
Oltinko'l	936,8	1 128,5
Andijon	1 072,7	1 252,8
Baliqchi	886,4	1 015,6
Bo'z	994,3	1 156,5
Buloqboshi	1 028,7	1 217,7
Jalaquduq	1 021,5	1 250,9
Izboskan	932,4	1 161,8
Ulug'nor	991,3	1 147,5
Qo'rg'ontepa	1 057,1	1 195,7
Asaka	1 745,0	2 291,0
Marxamat	1 065,3	1 186,2
Shaxrixon	1 019,2	1 261,9
Paxtaobod	1 093,0	1 209,9
Xo'jaobod	1 124,3	1 365,6



O'rtacha oylik nominal hisoblangan ish haqi ko'rsatkichini viloyat hududlari bo'yicha ko'radigan bo'lsak, eng yuqori daraja Asaka tumani (**2291,0** ming so'mga teng bo'ldi, viloyatdagi o'rtacha oylik nominal hisoblangan ish haqiga nisbatan **148,7** foizni tashkil etdi), Andijon shahri (**1865,5** ming so'mni, **121,0** %) va Xonobod shahrida (**1648,7** ming so'm, **107,0** %) kuzatilgan bo'lsa, eng past ko'rsatkichlar Baliqchi (**1015,6** ming so'm, **65,9**%) va Oltinko'l tumanida (**1128,5** ming so'm, **73,2** %) kuzatildi.

Andijon viloyati bo'yicha o'rtacha oylik nominal hisoblangan ish haqi
(2018 yil yanvar-sentyabr, viloyatdagi o'rtacha nominal hisoblangan oylik ish haqiga nisbatan, foizda)

